

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-SENTABR

ANDIJON, 2024

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA CHET TILINI IKKINCHI TIL SIFATIDA O'QITISHDA INNOVATSION METODLAR

Tursunova Mxabbat

Toshkent davlat pedagogika universiteti tayanch doktaranti

Annotatsiya: Maqola chet tillarini intensiv o'qitishning lingvistik va uslubiy xususiyatlariga bag'ishlangan bo'lib, unda o'qitishning an'anaviy va zamonaviy usullari taqqoslangan. Ushbu maqolada chet tillarini o'qitishning kommunikativ yondashuv usuli haqida batafsil so'z yuritilgan, shuningdek chet tillarini intensiv o'qitishning psixologik-mantiqiy va uslubiy jihatlari tahlil qilingan. Hozirgi kunda chet tili o'qituvchilari pedagogik faoliyatida o'qitishning multimedia vositalari, interfaol usullariga alohida e'tibor qaratilmoqda, shu sababli ushbu maqolada chet tilining turli kompetensiyalarini o'rgatishda o'quv mashqlarini tuzish tamoyillari keltirilgan.

Kalit so'zlar: chet tillari, intensiv metod, interfaol usullar, rolli o'yinlar, kommunikativ yondashuv usuli.

Har qanday fanni o'qitishning pedagogik maqsadi bevosita ta'larning ijtimoiy maqsadi va mazmunidan kelib chiqadi. Jamiyatning ta'limga qo'yayotgan yangi talablari, ya'ni bilim va shaxs rivojlanishi darajasi, yangi davr talablari o'qitish usullarini o'zgartirishga bo'lgan ehtiyojni yanada kuchaytirmoqda. Chet tilini o'qitish va o'rganish metodikasi XX asr boshlaridagi islohotlardan to hozirgi kungacha uzoq rivojlanish davrini bosib o'tdi. Chet tillarini intensiv o'qitish ahamiyatining muhimligi allaqachon isbotlangan bo'lsada, ammo uning amaliyotga tadbiqi hali ham dolzarb muammoligicha qolmoqda. Xorijiy tilda talaba yoshlar samarali va muvaffaqiyatli muloqot qilishlari uchun, zamonaviy mutaxassislar fikricha, tilni mukammal bilishdan tashqari, tilning madaniy va tarixiy asoslarini o'rganish, zaruriy leksik va grammatik tuzilmalarni faol qo'llash qobiliyatini rivojlantrish, suhbat jarayonida o'z-o'zidan sodir bo'ladigan o'zgarishlarga moslashuvchan munosabatda bo'lish, ya'ni bunday darajaga erishishni talab qiladigan xatosiz, aniq til vositalarini tanlashni talab etadi. [1, p. 15]. Umuman olganda, talabalar uchun "intensiv o'rganish" tushunchasi talabaning qisqa vaqt ichida o'qish uchun kuniga ko'p soatlar shug'ullanishi talab etadigan jarayonni bildiradi. Shunga qaramay, bu intensiv o'qitish-o'rganish tushunchasi ko'plab ma'lum jihatlarni o'z ichiga oladi, masalan, chet tilining qaysi aspektlariga ko'proq e'tibor berish kerak va qaysilarini chetlab o'tish mumkin; ma'lum turdag'i aspektlarga qancha vaqt ajratish va qaysi yo'llar orqali ularni o'rganish samaraliroq va boshqalar.

Oxirgi tadqiqotlar tahlili va nashrlar. Xorijiy tillarni intensiv o'qitishning eng ommabop usuli "Immersion" ya'ni o'quvchilarni yangi tildan foydalanishlari zaruriy bo'lgan vaziyatlarga qo'yadigan til o'rgatish usuli yordamida 1970-yillarning oxirlarida – 1980- yillarning boshlarida G.K.Lozanov va G.A.Kitaygorodskayaning g'oya va tushunchalari asosida ishlab chiqqan [2, 3]. Bu usul yashirin psixologik resurslar yordamida turli xil vaziyatlarda tildan nazariy va amaliy jihatdan foydalanishni, jamoaviy munosabatlarda shaxsning faollashuvini amalga oshiradi. Shunga qaramay, bu usul individual uy vazifalarini, nutqni avtomatik o'zlashtirishni, shaxsiy o'qitish mashqlari tizimini shakllantirishni maqsad qilmaganligi uchun, hali hamon ko'plab munozaralarga sabab bo'lmoqda.

Chet tillarni o'qitishning boshqa usullarini ishlab chiqishda qisman G.K.Lozanov va Kitaygorodskaya g'oyalaridan foydalanildi. Umuman olganda, bunday usul an'anaviy kurs dasturining qisqartirilganligini anglatadi va u faqat eng muhim asosiy yoki eng tez-tez uchraydigan mavzularni saqlab qoladi. Til dasturlarida, agar u grammatikani qisqartirilgan variantda o'z ichiga olgan bo'lsa, muallif kursni intensiv deb hisoblashi mumkin. Chet tillarini intensiv o'qitishni rivojlantirishda I.A. Zimnaya, O.O. Leontiev, R.Yu..Martynova, I.P. Podlasyi, I.V Raxmanov maqsadi talabani muayyan mavzuda muloqot qilishga o'rgatadigan

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-SENTABR

ANDIJON, 2024

boshqa kurslarni , masalan, biznes taqdimoti va undan keyingi muhokamalarni ham intensiv deb hisoblash mumkin deya fikr bildirishadi. [4–9].

Chet tillarni o'qitishga yondashuvdagi hal qiluvchi o'zgarishlar ushbu tillarni amaliy, ko'pincha tor, o'zlashtirishga bo'lgan ijtimoiy talablarning paydo bo'lishi bilan bog'liqdir. Turli xil bilim sohalari mutaxassislari uchun asosiy vazifa amaliy nutq kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirish , ushbu maqsad bilan bog'liq bo'lgan, lekin til tizimini amaliy natijalarga tez erishishga yo'naltrilgan yangi o'qitish usullarining paydo bo'lishi, yangi psixologik va lingvistik nazariyalar L.Bluemfeld, N.Xomskiy, K.Koffka, E.L.Torn Dike kabilar tomonidan belgilandi [16-19]. Har doimgidek, yangi usullarning rivojlanishi bilan birga, ko'pincha "an'anaviy" deb ataladigan grammatik-tarjima usuli bizning oliv o'quv yurtlarimizda hamon hukmronlik qilmoqda. Uning belgilarini bugungi kunda chet tillarini o'qitish dasturlari va nashr etilayotgan darsliklarda ham ko'rish mumkin, garchi bu metod yordamida uzoq davom etgan o'quv mashg'ulotlari ham o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirmasligi aniq isbotlangan.

Xulosa qilib, masofaviy ta'lif usuli allaqachon dunyoda alohida ahamiyatga ega va ommalashib bormoqda. Quyidagi usulni innovatsion tendentsiya sababli - intensiv deb hisoblash mumkin. Zamonaviy axborot texnologiyalarining yuqori darajasi bilan mashg'ulotlarning intensiv kommunikativ yo'nalishi haqida gapirganda, oddiy grammatika va lug'at mashqlarini, ma'lum iboralar yoki jumlalarni tarjima qilishni unutmasligimiz kerak, chunki bunday vazifalar muayyan til naqshlaridan foydalanishni avtomatlashtirishga yordam beradi. Innovatsion o'qitishning ilmiy asoslari, psixologik tadqiqotlari, xususan, uning turli sohalarini keng qo'llagan holda metodologiya doirasidan yuzaga chiqadi.

Foydalilanigan adabiyatlar:

1. Ivanova O. V., Chernik N. N. Intercultural Communication and Professionally Oriented Trainingin Foreign Languages: Materials of the IY International Scientific Conf., Ddedicated to the 89th Anniversary of Foundation of the Belorussian State University, - Minsk: Print. Centre BGU, 2010. — P. 15–16.
2. Lozanov G. K. Suggestopaedia — Desuggestive Teaching Communicative Method on the Level of the Hidden reserves of the Human Mind / G. K. Lozanov. — Vienna: International Centre for Desuggestology, 2005. — 140 p.
3. Kitaygorodskaya G. A. Methodology of Intensive Teaching Foreign Languages. — Moscow: Nauka, 1986. — 183 p.
4. Zimniaya I. A. Psychology of Teaching a Non-Native Language / I. A. Zimniaya. — Moscow: VyshayaShkola, 1989. — 219 p.
5. Leontiev A. A. Language, Speech, Conversational Activity / A. A. Leontiev. — Moscow: Nauka, 1999. — 214 p
6. Martynova R. Yu. Methodological Grounds of Presentation as a Kind of Speech Activity / R. Yu. Martynova. — Odessa: Publ. House OOO "Leradruk", 2012. — 99 p.
8. Podlasiy I. V. Pedagogics: New Course: Manual for Higher School Students / I. V. Podlasiy. — In 2 vol. — Moscow: Pedag. Science, 2002. — Vol. 1. — 576 p
9. Rakhmanov I. V. Cognitive-Comparison Method / Main Trends in Foreign Languages Teaching in the XIX–XXth centuries / I. V. Rakhmanov. — Moscow: Nauka, 1972. — 317 p.